

# Brifing: "O'zkiyosanoat" Ajda 2026-yilning birinchi yarim yilligida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar

// 30.06.2026

<https://uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/brifing-o-zkiyosanoat-ajda-2026-yilning-birinchi-yarim-yill>

Hisobot davrida korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, Prezident farmon va qarorlari, Hukumat topshiriqlari, ichki me'yoriy hujjatlar, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha yillik reja hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish dasturi asosida tizimli ravishda amalga oshirildi.

Avvalo, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimini yanada kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-22-son Farmoni ijrosi doirasida "O'zkiyosanoat" Ajning tashkiliy tuzilmasi qayta ko'rib chiqildi. Natijada Boshqaruv raisining komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha o'rinbosari lavozimi joriy etildi.

Shuningdek, davlatimiz rahbarining 2025-yil 30-dekabrda "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni talablariga muvofiq, Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens boshqarmasining nizomi hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining namunaviy Nizomi asosida xodimlarning lavozim yo'riqnomalari qayta ishlab chiqilib, tasdiqlandi.

Davlat xaridlari sohasida shaffoflik va ochiqlikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi. Bu borada Prezidentimizning 2025-yil 26-dekabrda "Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni talablariga muvofiq "O'zkiyosanoat" Ajning Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens boshqarmasida "davlat xaridi bo'yicha bosh mutaxassis" lavozimi joriy etildi.

Shu bilan birga, Davlat xaridlari operatsiyalarini nazorat qilishni takomillashtirish maqsadida "O'zkiyosanoat" Ajning "Xaridlar to'g'risida"gi Nizomi va "Kontragentlarni tekshirish to'g'risida"gi yo'riqnomasi yangi tahrirda ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etildi.

Hisobot davrida davlat xaridlari sohasida o'tkazilgan nazorat tadbirlari doirasida "Ammofos-Maxam" Ajda 2024-2026-yillarda amalga oshirilgan qariyb 7 milliard so'mlik davlat xaridlari o'rganildi. Aniqlangan qonunbuzilish holatlari bo'yicha xizmat tekshiruvlari o'tkazilib, natijada 3 nafar xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilindi, 4 nafar xodimga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llanildi.

Shuningdek, yo'l qo'yilgan kamchiliklar natijasida yetkazilgan 156 million so'm zarar kontragent hisobidan qoplanishi ta'minlandi hamda 1 milliard 200 million so'm mablag'ning samarasiz sarflanishining oldi olindi.

Davlat xaridlarida korrupsiya xavflarini kamaytirish maqsadida hisobot davrida tuzilgan 598 ta xo'jalik shartnomasining barchasiga korrupsiyaga qarshi kurashishga oid maxsus shartlar kiritildi. Kadrlar bilan ishlash jarayonlarida ham shaffoflikni ta'minlash choralari ko'rildi. Joriy yilning birinchi yarim yilligida "O'zkiyosanoat" AJ va tarmoq korxonalariga ishga qabul qilingan 13 nafar yangi xodim belgilangan tartibda tekshiruvdan o'tkazilib, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish choralari ko'rildi.

Shu bilan birga, davlatimiz rahbarining 2025-yil 30 dekabrda "Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori talablariga muvofiq, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyat samaradorligi baholanishini ta'minlash maqsadida, 2026-yil 1-yarim yilida 7 ta yo'nalish va 36 ta maxsus indikator bo'yicha amalga oshirilgan ishlar haqidagi ma'lumotlar shakllantirildi va "E-Anticor.uz" elektron platformasiga kiritish choralari ko'rilmogda.

Murojaatlar bilan ishlash sohasida ham tizimli ishlar amalga oshirildi. Hisobot davrida Jamiyat va tarmoq korxonalarining ishonch aloqa kanallari orqali jismoniy va yuridik shaxslardan jami 72 ta murojaat kelib tushdi. Ularning 6 tasi korrupsiyaga oid bo'lib, har biri belgilangan tartibda ko'rib chiqildi va murojaatchilarga qonunchilikda belgilangan tartibda javoblar berildi.

Xulosa qilib aytganda, 2026-yilning birinchi yarim yilligida "O'zkimyosanoat" AJda korrupsiyaning oldini olish, davlat xaridlarida shaffoflikni ta'minlash, ichki nazorat mexanizmlarini takomillashtirish va komplayens madaniyatini yuksaltirish bo'yicha qator amaliy ishlar bajarildi. Ushbu yo'nalishdagi chora-tadbirlar izchil davom ettirilmoqda.